

ONOMASTIK BIRLIKLARNI O'QITISHDA LINGVISTIK MASHQLARNING AHAMIYATI

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Dilnoza Abduvaliyeva
JDPI magistranti Iroda Usmonqulova

Annotatsiya

Maqolada onomastik birliklarni o'qitishda lingvistik mashqlar tuzish, ular ustida ishlash va lingvistik mashqlarning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Onomastika, antroponimiya, toponimiya, gidronimiya, zoonimiya, maqol, doston, lingvistik mashq.

Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Maktabda tilning fonetika, leksika hamda grammatikaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq ko'nikmalari ustida ish qilinadiki, bularni grammatik mashqlar deyish an'anaviydir. Biroq ular tilning birgina grammatika sohasiga tegishli bo'lganligi bois cheklangandir. Binobarin, bu istilohi o'rnida «lingvistik mashq» istilohini ishlatish ma'quldir. Lingvistik mashq yoshlarni hayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta'limini amalga oshirishning yetakchi yo'li hisoblanadi. Mashq ma'lum makonda (sinfda o'qituvchi rahbarligida) va zamonda (darsda) o'tkaziladi. Leksikologiya bo'limining tarkibiga kiruvchi onomastika sohasini o'rganishda ham lingvistik mashqlarning ahamiyati beqiyosdir. [*Abdishukur Musayevich Shofqorov Nursulton Shayxislamov "Ona tili ta'limida lingvistik mashqlarning o'rni" 2020, 1-3-bet.*]

Xo'sh, onomastika o'zi qanday soha? **Onomastika** (yun. onomastike — nomlash, nom qo'yish san'ati) — tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig'indisi. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan. [*Abdulahob Madvaliyev "Onomastika" "Sharq" 2018, 3-7-bet.*] Atoqli nomlarning lisoniy xususiyatlariga

qarab Onomastika adabiy va dialektal, odatdagi (amaliy) va poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy turlarga bo‘linadi. Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalardagi atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, nominatsiya (nomlash) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o‘zgarishlari, nutqda qo‘llanishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda tarkibiy tuzilishini o‘rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni (poetik onomastika) tadqiq etish alohida muammo hisoblanadi. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, so‘z yasalishi, semantik, etimologik va boshqa jihatlarini o‘rganadi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi va transliteratsiyasi, an’anaviy (talaffuz va yozilishiga ko‘ra), tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o‘z tilda qanday yozish bo‘yicha yo‘riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o‘zlashgan nomlardan yangi so‘zlar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o‘zgartirish masalalari bilan shug‘ullanadi. Onomastika tarix, etnografiya., arxeologiya, genealogiya, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi fanlar bilan o‘zaro aloqadordir.

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslikning bo‘limiga onomastika (lot. onuma — nom so‘zidan olingan) deyiladi. [A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 216-219-bet.]

Demak, onomastika bu atoqli otlarni, ularning nomlanish tarixi, nomlanish sabablarini o‘rganuvchi soha. Onomastikaning obyekt turiga ko‘ra turlari ko‘p. Bu degani aynan qanday obyektни nomlayotganiga ko‘ra turlarga bo‘linadi. Bu haqida yuqorida fikr yuritdik. A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” kitobida ko‘rib chiqqan asosiy 4ta turi haqida baxs yuritsak.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko‘ra bir necha guruhga bo‘linadi:

1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar antroponimlar (lot. antropoz — shaxs, odam; onuma — nom): Ahmad, Karim va boshqalar.
2. Geografik obyektlar va ularning nomlari toponimlar (lot. topos — qishloq, shahar, maydon, ko'cha, onuma - nom): Shirmonbuloq, Qorako'l, Qarshi kabi.
3. Hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar zoonimlar (lot. soom — hayvon, opuna — nom): to'rtko'z, bo'ribosar kabi.
4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo'yilgan nomlar (daryo, ko'l, dengiz nomlari) gidronimlar (lot. gidro — daryo, suv, onuma — nom): Orol dengizi, Balxash ko'li, Qashqadaryo kabi

O'quvchilarga onomastika haqida ma'lumot berar ekanmiz , ularga onomastikaga doir misollar keltirishimiz doir. Keltirayotgan misollarimiz o'zlari o'qigan, tanish bo'lgan roman, doston, she'r, vaholanki, xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan maqol, matal, topishmoq, ertak, xalq dostonlaridan (maktab darsliklarida o'qiyotgan : “Alpomish”,”Ravshan”,”Go'ro'g'lining tug'ilishi” “Kuntug'mish”dostonlari) bo'lsa , o'quvchilarda o'zgacha qiziqish, ajib ruhiyat beradi desak, yanglishmagan bo'lamiz. Sababi o'zlari o'qigan kitoblardan foydalanish ularga kitob topish, sotib olish zaruriyatini tug'dirmaydi. Bundan tashqari o'quvchilar ruhiyatida o'zlari bilgan ma'lumotni qayta-qayta bo'lsa ham o'qish, hikoya qilishga moyillik mavjud. Xo'sh endi maqol va topishmoqlarga keladigan bo'lsak, maqol aytishni, izlab topishni topishmoqni javobini topishni yoqtirmaydigan o'quvchi bo'lmasa kerak O'quvchilardagi aynan shu xususiyat onomastik birliklarni puxta o'rganish imkonini beradi. Xo'sh buning uchun nima qilish kerak? Buning uchun keltirayotgan mashq va topshiriqlarni tuzishda maqollar, topishmoqlardan foydalanish kerak.


Mashqlar o'quvchilar uchun qulay tushunarli va, albatta, qiziqarli bo'lmog'i lozim. Mashq ishlash jarayonida o'quvchida mavzu yuzasidan ko'nikma hosil bo'lishi maqsadga muvofiq. Quyida keltirilgan onomastik birliklar yuzasidan mashq klaster metodi orqali yoritilgan.

Onomastik birliklar yuzasidan mashqlar:

1. Quyidagi berilgan maqollar tarkibidagi onamastik birliklarni obyekt turiga ko`ra klasterga joylashtiring va maqollarning ma`nosini izohlang!

- Fil tushida Hindistonni ko`rar.
- Ishni Ismat qiladi,
Lofni Toshmat uradi.
Ishni qiladi asbob,
Egasi uradi lof.
- Qul qutursa, Qo`ng`irotdan top.
- Ichgani oshi yoq
Itining oti Boytevvat
- Bir ko`ngil imorati,
Ming Makka ziyorati.
- Abdulhakim ovga chiqdi.
Orqasidan g`avg`o chiqdi.
- Gap desang qop-qop,
Ish desang Ashtarxondan top.
- Sulaymon o`ldi,
Devlar qutuldi.
- Zamona oxir bo`lsa,
Echkining oti- Abdukarim.
- Axmoqqa To`ytepa bir tosh.
- Eshshak Makkaga borib halol bo`lmas.
- Otasini so`rasang Ahmadi forig`
Onasini so`rasang, tovonni yorig`.

Onomastik birliklarning obyektiga ko`ra turlari



Biz bilamizki, maqollar pand-nasihah ruhida yoziladi. Maqolni butun xalq yaratadi, shu boisdan unda jamoatchilik fikri o`z ifodasini topadi. Unda xalqning hayotga bergan bahosi, xalq zakovatining kuzatilishi jo etilgan bo`ladi.

Xalq maqollari saqlab qolish uchun qulay shaklga ega bo'lib, etnopedagogik vosita sifatida ular ma'nosini kuchaytiradi. Maqollar xotiraga mahkam o'rtnashadi. So'z o'yinlari, so'zlarning turlicha jarangi, qofiyadoshligi, ohangdorligi, goho shu qadar jozibali bo'ladiki, kishi oson esda saqlab qoladi. Ayni holda she'riyat donolikni, tarbiya va uning hosilasi xulqni ifodalash faoliyati tajribasini asrash va targ'ib qilish vazifasini ado etadi. Haqiqatan ham, maqollar insonni o'ziga tortadi. Demak, mavzu yuzasidan mashqlar aynan o'quvchilar sevib o'qiydigan maqollardan tuzilsa, samaradorligi yanada ortadi. Mavzuni mustahkamlashdan tashqari, maqollar orqali ibrat va tarbiya olishadilar.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan yirik janrlaridan biridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy-maishiy qiyofasi, siyosiy qarashlari, axloqiy estetik tarbiya, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'likdir. Asriy kurashlar va ideallar mavzusi g'oyaviy mazmunni, voqelikning mohiyatini belgilaydi. «Doston» so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy atama sifatida u, xalq og'zaki ijodida yirik xajmli epik asardir. Dostonlarda o'tmishimizdagi kishilar, joy nomlari, tog', suv havzalari nomlari, urug' nomlari qayd etilgan bo'ladi. Xususan, "Alpomish" dostonini o'qir ekanmiz, tariximiz ko'z oldimizda gavdalanadi. Tarixda o'zbek urug'lari, ular yashagan hududlar, tog'lar, ko'llar haqida bilimga ega bo'lamiz va shu asardagi onomastik birliklarni o'quvchilar izlab topishsa, yanada dars mahsuldor bo'ladi. Darhaqiqat bu orqali fanlarni o'zaro integratsiya qilgan holda o'rgatamiz.

Mashq: Alpomish dostonidan foydalanib onomastik birliklarning quyidagi turlariga misollar yozing!

hayvon, shaxs, tog', ko'l, urug', joy nomi

Namuna:

Hayvon nomi	Shaxs nomi	Tog` nomi	Ko`l nomi	Urug` nomi	Joy nomi
Boychibor	Hakimbek	Asqar tog`i	Ko`kqamish ko`li	Qo`ngirot urug`i	Yovmit

Mashq: “Ravshan” dostonidan keltirilgan matnni o`qing. Antroponimlar va toponimlarning tagiga chizing!

Burungi o`tgan zamonda, el-yurti omonda, o`zi qibla tomonda, Buxorodan tubanda, Taka Yovmit deganda, Yovmit elida, Chambilning belida Go`ro`g`libek davrini surib o`tdi, dushmanning dodini berib o`tdi. qirq yigitni yig`ib; dovulni tuyib, oltin piyolaga maylar quyib, araqga bolni qotib, bolga araqni qotib, qirq yigitni yig`dirib, silovsin to`n kiydirib, kuniga kechkisin sergo`sht qilib, sermoyli palovga to`ydirib, semiz qo`ydan so`ydirib, ko`pkarisin choptirib, olomonga ola sarpo yoptirib, el-xalqning ko`nglin toptirib, Yunus bilan Misqol parini Ko`hi Qofdan, Iram bog`idan keltirib, pari bilan o`ynab-kulib, davrini surib, umr o`tkarar edi. Go`ro`g`libekka xudo farzand bermadi, oti o`chmadi. Shunda Go`ro`g`libek: «Asli taqdir-qismatda bizga farzanddan taqsim bo`lgan yurt ekan» deb taqdirga tan berib, Xasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib ikkovini ulim deb, iskasam gulim debu jonu dilim deb, tobutimning chegasi, el-yurtimning egasi, o`lsam merosxo`rim deb, ikkovi bilan ko`nglini xush qilib, shularga bino qo`yib, «bolam-bo`tam» deb parvarish qilar edi.

Xulosa qilib ayganda, lingvistik mashqlarsiz ona tili ta`limini tasavvur etib bo`lmaydi. O`z mehnatining maqsadini tushunish, unga erishish uchun harakat qilish, intilish bola faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo`lib, ular mashq qilish natijasida tarkib topadi. Bunga mashqlarni yetarli darajadagi qiyinchilik va murakkablikda o`tkazish yo`li bilan erishiladi. Ammo ona tili metodikasi fanida mashqlarning qiyinligi va murakkabligi masalasi haligacha o`rganilgan emas. Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o`rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Maktabda tilning fonetika, leksika hamda grammatikaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq ko`nikmalari ustida ish qilinadiki, bularning barchasi lingvistik mashqlar yordamida amalga oshadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *“Alpomish” dostoni “Yoshlar nashriyot uyi” 2018, 15-156-bet.*
2. *A. Nurmonov, A. Sobirov, Sh. Yusupova “Hozirgi o`zbek adabiy tili” 216-219-bet.*
3. *Abdishukur Musayevich Shofqorov Nursulton Shayxislamov “Ona tili ta`limida lingvistik mashqlarning o`rni” 2020, 1-3-bet.*
4. *Abdulahob Madvaliyev “Onamastika” “Sharq”2018, 3-7-bet.*
5. *T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov “O`zbek xalq maqollari to`plami” “Sharq”-2005, 33-135-bet.*
6. *“Ravshan” dostoni “Yangiyo`l poligraf servis”2019, 6-7-bet.*